

“Zafarnoma” asari “Muqaddima” qismi o‘zbek tiliga tarjima qilindi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti olimlari tomonidan “Zafarnoma” asari “Muqaddima” qismining fors tilidan o‘zbek tiliga ilmiy-izohli tarjimasini nashr etildi. Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va ilmiy izohlar muallifi O. Bo‘riyev, shaxs ismlari, geografik-topografik va etnik nomlar hamda atamalar ko‘rsatkichini tuzuvchi A.Sharipov.



Kitobxonlar hukmiga havola etilayotgan ushbu kitob Sohibqiron Amir Temur saltanati tarixiga bag‘ishlab yozilgan shoh asar, aniqrog‘i, mashhur tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy qalamiga mansub “Zafarnoma” asari “Muqaddima” qismining fors tilidan o‘zbek tiliga ilmiy-izohli tarjimasidan iborat. Akademik tarjima talabidan kelib chiqib, unga so‘zboshi, ilmiy izohlar va ko‘rsatkichlar ham ilova qilindi. Mazkur tarjima va

tadqiqot "Markaziy Osiyo tarixiga oid manbalar nashri (Sharqshunoslik instituti fondi yozma manbalari asosida)" va "Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob" loyihasi doirasida bajarildi.